

NEFT VA GAZ ISHLAB CHIQARISH SOHASIDA ISHLOVCHI XODIMLARING SOG'LIG'IGA TA'SIR ETUVCHI EPIDEMIOLOGIK XAVF OMILLAR VA ULARNI OLDINI OLISH

Xudoyqulov J.B.
Atabekov N.S.

¹Toshkent davlat tibbiyot universiteti

²O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qumitasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18033573>

Neft va gaz sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat yurituvchi xodimlar og'ir ishlab chiqarish sharoitlarida, uzoq muddatli navbatchilik va vaxta asosida ishlaydilar. Bu esa ularning sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan turli epidemiologik xavfli omillar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Epidemiologik xavf omillar — bu xodimlar orasida yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalishiga olib keladigan omillardir. Ularni erta aniqlash va bartaraf etish mehnat muhofazasi va sog'liqni saqlash tizimining muhim yo'nalishlaridan biridir. Neft va gaz ishlab chiqarish sohasida ishlovchi xodimlar ko'pincha uzoq, cho'l va tog'li hududlarda joylashgan, bir qator yuqumli va parazitar kasalliklarning tabiiy o'choqlari bo'lmish, cheklangan sanitariya sharoitiga ega ob'ektlarda faoliyat yuritadilar. Bu esa quyidagi epidemiologik xavfli omillarni keltirib chiqaradi: suv va oziq-ovqat bilan bog'liq omillar, shaxsiy gigiyena va yashash sharoitlari, hasharotlar va kemiruvchilar, pashsha, chivinlar ko'payishi, ular orqali yuqumli kasalliklarning (QKGI, bezgak, leptospiroz, tularemiya, sapranozlar va h.k.) tarqalishi. Kasallik manbai bo'lgan xodimlar: Yuqumli kasallik bilan og'rigan yoki gumon qilingan xodimning ish joyida qolishi, faoliyatini davom ettirishi asosiy xavf omillar deb hisoblanadi.

Epidemiologik xavfli omillarni oldini olish choralari, xususan, oshxona, hojatxona va dushxonalarda muntazam tozalik va dezinfektsiya ishlarini olib borish; ichimlik suvi manbaalarini laboratoriya nazoratidan o'tkazish, xodimlarni ishga qabul qilishdan oldin dastlabki va faoliyati davomida davriy tibbiy ko'rikdan o'tkazish, yuqumli kasallik alomatlari aniqlangan xodimni vaqtincha izolyatsiya qilish, zaruratga ko'ra emlash tadbirlarini o'tkazish, ishchilarni shaxsiy himoya vositasi (ShHV) bilan ta'minlash, hasharot va kemiruvchilarga qarshi muntazam dezinseksiya va deratizatsiya tadbirlarini olib borish, yopiq joylarda havoni dezinfektsiya qilish, shamollatish tizimini toza saqlash, xodimlar o'rtasida gigiyena, yuqumli kasalliklarning oldini olish, ShHVDan foydalanish haqida muntazam targ'ibot ishlari olib borish, har bir brigadada "salomatlik burchagi"ni tashkil etish asosiy chora tadbirlar sanaladi.

Xulosa: Neft va gaz sanoati xodimlarining sog'lig'ini saqlash va ularni yuqumli kasalliklardan himoya qilish — ishlab chiqarish xavfsizligining ajralmas qismi hisoblanadi. Epidemiologik xavfli omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralari vaqtida amalga oshirilsa, ishlab chiqarishda sog'lom muhit yaratiladi, ish unumdorligi oshadi va korxona faoliyati barqaror bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Xakimov A.A. SANOAT CHIQINDILARI ASOSIDA EKOLOGIK TOZA BRIKETLAR OLISHNING DOLZARBLIGI СБОРНИК ТЕЗИСОВ IV Международной Научной Конференции "Современные тенденции развития нефтегазовой отрасли в эпоху зелёной экономики и

цифровизации" 2025-у-460-S.

2. Хамзаева, Н. Т., Матназарова, Г. С., Саидкасимова, Н. С., & Абдукаххарова, М. Ф. (2024). ТОШКЕНТ ШАҲРИДА 2020-2023 ЙИЛЛАР МОБАЙНИДА КОРОНАВИРУС COVID-19 ИНФЕКЦИЯСИ БИЛАН КАСАЛЛАНИШНИНГ РЕТРОСПЕКТИВ ЭПИДЕМИОЛОГИК ТАҲЛИЛИ. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbqiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 31(1), 189-193.

3. Курбаниязова, М. О., Маденбаева, Г. И., Хамзаева, Н. Т., & Курбанбаева, Б. Р. (2024). ПРОБЛЕМЫ БЕЗОПАСНОГО И ДОСТУПНОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ. Лучшие интеллектуальные исследования, 31(2), 62-73.